

**Xabeas korpus – inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilishning  
ishonchli kafolati**

***Ismoiljonova Mubinaxon Umidjon qizi***

*Andijon davlat universiteti 3-kurs talabasi, O‘zbekiston Respublikasi*

***Ismoiljonova Mubinaxon Umidjon qizi***

*3rd year student of Andizhan State University, Republic of Uzbekistan*

***Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich***

*Ilmiy rahbar: “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti*

*Andijon Davlat Universiteti, O‘zbekiston Respublikasi*

***Husanboy Madaminjonovich Muminov***

*Associate Professor at the department of “History of Uzbekistan”*

*of Andizhan State University, Republic of Uzbekistan*

***Annotatsiya:*** Mamlakatimizda tarixan qisqa davr ichida inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblangan huquqiy demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Xususan, inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilishning ishonchli kafolati bo‘la olgan “xabeas korpus” tizimida ham muhim ishlar amalga oshirildi. Quyidagi maqolada “xabeas korpus” nima ekanligi, uning maqsadi va vazifalari to‘g‘risida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:*** sanksiya, demokratiya, rezolyutsiya, petitsiya, “yagona sud”, protsessual.

***Abstract:*** In our country, in a historically short period of time, great work has been done to establish a legal democratic state and a just civil society, in which a person, his interests, rights and freedoms are considered the highest value. In particular, important works have been carried out in the system of "habeas corpus", which can be a reliable guarantee of the protection of human rights and freedoms. The following article discusses what "habeas corpus" is, its purpose and functions.

*Key words: sanction, democracy, resolution, petition, "single court", procedural.*

Istiqlol yillarida milliy qonunchiligimizni xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish, demokratik tamoyillar va xalqaro huquqiy talablarga to'liq javob beradigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Birgina «HABEAS CORPUS» institutining milliy qonunchiligimizdan mustahkam joy olgani ham fikrimizning yorqin dalilidir.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning 2005 yil 8 avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi Farmonga asosan, 2008 yil 1 yanvardan boshlab jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlar vakolatiga o'tkazildi. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish qonunda belgilangan boshqa ehtiyot choralarini qo'llash samarasiz bo'lgan alohida hollarda va faqat jinoyat ishlari bo'yicha sudlar yoki harbiy sudlarning ajrimiga asosan amalga oshiriladigan bo'ldi.

O'z navbatida, Oliy sud Plenumining 2007 yil 14 noyabrdagi «Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida»gi qarori bu borada yagona sud amaliyotini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

*Ma'lumki, jinoiy ta'qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi «HABEAS CORPUS» deya nomlanadi. Bu atama 1679 yil 26 may kuni ingliz parlamenti tomonidan qabul qilingan qonun - «Xabeas Korpus Akt» atamasidan olingan.<sup>1</sup>*

“Xabeas korpus” (lot. habeas corpus) — shaxs daxlsizligi tamoyili bilan chambarchas bog'liq ingliz jinoiy-protsessual huquqiy instituti; u shuningdek, anglosakson huquq oilasidagi boshqa davlatlar huquqiy tizimiga ham kiradi.

---

<sup>1</sup>

[https://www.norma.uz/oz/bizning\\_sharhlar/habeas\\_corpus\\_uzbekistonda\\_inson\\_huquqlarining\\_ishonchli\\_kafolati](https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/habeas_corpus_uzbekistonda_inson_huquqlarining_ishonchli_kafolati)

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

Angliyada Habeas korpusi institutidan 15 asrdan beri doimiy ravishda foydalanib kelinadi. Dastlab u shaxslar, asosan feodallar va ularga bo'ysunuvchilar tomonidan buzilgan erkinlikni tiklash vositasi sifatida ishlatilgan, ammo Genrix VII davridan boshlab u Qirol tomonidan shaxsni kuzatib borishda qo'llanilgan. Biroq, 1679-yilgi qonunga qadar (Habeas korpus qonuni), habeas korpusni berish o'zlari mustaqil bo'lmagan sudyalarning ixtiyoriga qo'yilgan. Bunday farmonni chiqarish masalasi ko'pincha kechiktirilgan. Bundan tashqari, sudyaning buyrug'ini bajarmaslik hech qanday javobgarlikka sabab bo'lmagan. Bu kabi huquqiy kafolatlarning yetishmasligi Tyudorlar va Styuartlarning mutlaq hukmronligi davrida ayniqsa ochiqchasiga namoyon bo'ldi. Aynan shu tamoyilga rioya qilmaslik 1627-yilda mashhur siyosatchi J. Xempdenning hibsga olinishi va 1628-yil 29-martda Jamoat palatasi rezolyutsiyasining qabul qilinishida g'azablarga sabab bo'lgan, unda shunday deyilgan:

- Hech bir ozod odam qamoqqa olinmaydi yoki hibsdan ushlab turilmaydi. Qirol yoki Maxfiylik kengashining buyrug'i bilan hech kimning ozodligi hech qanaqasiga cheklanishi mumkin emas... hibsga olish yoki ozodlikni cheklash uchun qonuniy sabablar ko'rsatilmasa.

- Habeas korpus buyrug'ini hech kim inkor eta olmaydi; u qamoqqa olinishi, hibsdan ushlab turilishi kerak bo'lgan har bir shaxsning iltimosiga binoan ... qirolning, xususiyl kengashning yoki boshqa birovning buyrug'i bilan berilishi kerak.

- Agar ozod shaxs qamoqqa olinganida yoki hibsdan ushlab turilganida, qonuniy sabab ko'rsatilmagan bo'lsa va bu shu shaxsga berilgan habeas korpus asosida aniqlangan bo'lsa, u butunlay ozod qilinishi yoki garov evaziga qo'yib yuborilishi kerak.

- Ushbu rezolyutsiyalar 1628-yildagi huquq to'g'risidagi petitsiyaga kiritilgan va keyinchalik ingliz inqilobi hujjatlarida ko'p marta takrorlangan.

1668-yilda habeas korpus akt loyihasi sifatida Jamoat palatasiga kiritilgan, ammo qonun sifatida tan olinmagan. 1670 va 1675-yillarda yana ikkita shunga o'xshash qonun loyihasi Lordlar palatasi tomonidan rad etilgan. Nihoyat, 1679-

yilda shaxs manfaatlarini qirollik o'zboshimchaliklaridan himoya qiluvchi Habeas korpus akti rasman qabul qilingan.

Britaniyalik huquqshunos Albert Vann Disi (1835-1922) 1679-yilda qabul qilingan Habeas Korpus aktini "hech qanday prinsiplarni anglatmaydi va huquqlarni belgilamaydi, ammo amaliy nuqtayi nazardan ular shaxsning huquq erkinligini kafolatlaydigan yuzlab konstitusiyaviy moddalarning o'rnini bosa oladi"<sup>2</sup>, deb yozgan edi.

1679-yilgi qonun kuchga kirganida uni mustamlaka mamlakatlarga taalluqli emas deb hisoblashgan, shuning uchun 1700-yilgacha Britaniya hukumati mustamlaka bo'lgan, jumladan AQSHning ham aktini kuchga kiritishga bo'lgan bir necha urinishlarini rad etdi. 1710-yildan keyin esa siyosat o'zgargan va Virjiniya (Aleksandr Spotsvud), Shimoliy Karolina va Janubiy Karolina gubernatorlari ushbu huquqni mustamlakalarga tarqatish to'g'risida bayonotlar chiqarishgan. Biroq, AQSH Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilingan davrda bu huquq faqat Janubiy Karolinada amal qilgan. Negadir koloniyalar bu huquqqa unchalik ahamiyat bermagan. U faqat 1809-yilda Merilendda, 1815-yilda Nyu-Hempshirda, 1822-yilda Rod-Aylendda, 1821-yilda Konnektikutda, 1836-yilda Shimoliy Karolinada rasmiy kuchga kirgan.

Aytish kerakki, davlatimiz rahbari tomonidan taqdim etilgan mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi sud-huquq tizimida yangi davrni boshlab berdi. Zero, mazkur Konsepsiya asosida ishlab chiqilib, 2012 yil 18 sentyabrda qabul qilingan «Sud-huquq tizimi yanada isloh qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, sudga qadar ish yuritish bosqichida prokuror va tergovchi tomonidan qo'llanib kelingan ayblanuvchini lavozimidan chetlatish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi

---

<sup>2</sup> <https://daryo.uz/2022/06/23/konstitutsiyada-alohida-qayd-etilishi-rejalashtirilayotgan-xabeas-korpus-bu-qanday-norma>

protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida amalga oshirish tartibi joriy etildi.

*Bundan tashqari 2014 yil 4 sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonunga asosan Jinoyat-protsessual kodeksiga ehtiyot choralarining yangi turi, ya’ni uy qamog‘i joriy qilindi.*

Ushbu qonunga muvofiq, uy qamog‘i gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo‘lganida uning yoshi, sog‘lig‘i holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq, deb topilgan taqdirda qo‘llaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “The writ of habeas corpus” Phillip Margulies.
2. “Narratives of Remarkable Criminal Trials” Anselm Ritter von Feuerbach.
3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoni.